O‘ZBEKISTONDA INSON KAPITALIGA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Niyazova Gulnoza Shovkat qizi
O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi tinglovchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19647956

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiya kiritishning ahamiyati va uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lgan ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy malaka darajasi o‘rganildi. Shuningdek, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar hamda ularning natijalari ko‘rib chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, mehnat unumdorligini oshirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada mavjud muammolar aniqlanib, inson kapitaliga investitsiya samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar*: inson kapitali, investitsiya, iqtisodiy rivojlanish, ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, mehnat unumdorligi, innovatsiyalar, iqtisodiy o‘sish, kadrlar salohiyati.*

Abstract. This article analyzes the importance of investing in human capital in Uzbekistan and its impact on economic development. During the research, the main components of human capital such as education, healthcare, and professional skills were studied. In addition, the reforms aimed at developing human capital in the country and their results were examined. The analysis shows that investments in human capital play an important role in ensuring economic growth, increasing labor productivity, and improving the living standards of the population. The article also identifies existing problems and proposes several recommendations for increasing the efficiency of investments in human capital.

Keywords: *human capital, investment, economic development, education system, healthcare, labor productivity, innovations, economic growth, human resources potential.*

Аннотация. В данной статье анализируется значение инвестиций в человеческий капитал в Узбекистане и их влияние на экономическое развитие. В ходе исследования были изучены основные компоненты человеческого капитала, такие как образование, здравоохранение и профессиональные навыки. Кроме того, рассмотрены реформы, направленные на развитие человеческого капитала в стране, а также их результаты. Анализ показывает, что инвестиции в человеческий капитал играют важную роль в обеспечении экономического роста, повышении производительности труда и улучшении уровня жизни населения. В статье также выявлены существующие проблемы и предложены ряд рекомендаций по повышению эффективности инвестиций в человеческий капитал.

Ключевые слова: *человеческий капитал, инвестиции, экономическое развитие, система образования, здравоохранение, производительность труда, инновации, экономический рост, кадровый потенциал.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Inson kapitali – bu aholi salohiyati, ya’ni xalqning bilim, malaka, sog‘lik va ijodiy qobiliyatlari bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, mehnat unumdorligi va raqobatbardoshlikni bevosita ta’minlaydi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga samarali investitsiya kiritilishi mamlakat yalpi ichki mahsulotini barqaror ravishda oshirishga xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir dollarlik investitsiya inson kapitaliga uzoq muddatda 3–6 dollargacha iqtisodiy natija beradi.(Fuss, 2003)

2023-yil 11-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beradi. Mazkur strategiyaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri har bir insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratish bo‘lib, bunda ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirish orqali inson kapitalini mustahkamlash ko‘zda tutilgan. (Mirziyoyev, 2023) Strategiya doirasida 2030-yilgacha davlat investitsiyalarining katta qismi bilim, sog‘lik va ijtimoiy xizmatlar sohalarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. Bugungi kunda O‘zbekiston qator strategik hujjatlar orqali inson kapitalini rivojlantirishni iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘lab olib bormoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida, jumladan, ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, kasb-hunarga yo‘naltirilgan dasturlarni kengaytirish va aholi salomatligini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejalashtirilgan. Bu esa inson kapitaliga investitsiyalarning samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Prezident Sh. Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabrdagi Murojaatnomasida ham shuni ta’kidladi: “Har bir investitsiya dollaridan avvalo zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi malakali mutaxassislarni tayyorlash va mehnat unumdorligini oshirish uchun foydalanish lozim” deb belgilab berildi, bu esa inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi. (Mirziyoyev, 2025)

Adabiyotlar sharhi

Inson kapitali nazariyasi iqtisodiyot fanida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan bo‘lib, mazkur nazariyaning asoschilari sifatida T. Shults va G. Bekkerning ilmiy ishlari alohida e’tirof etiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, insonning bilim darajasi, kasbiy malakasi, sog‘ligi va tajribasi ishlab chiqarish jarayonida kapital kabi ishtirok etadi hamda daromad va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Shuning uchun ta’lim, sog‘liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan xarajatlar iste’mol xarajati emas, balki investitsiya sifatida qaraladi. Inson kapitaliga investitsiya samaradorligi tushunchasi ushbu investitsiyalar natijasida mehnat unumdorligining oshishi, bandlik darajasining yaxshilanishi va yalpi ichki mahsulot o‘sishi orqali namoyon bo‘ladi. Nazariy jihatdan inson kapitaliga investitsiya samaradorligi kiritilgan resurslar (mablag‘, vaqt, infratuzilma) bilan erishilgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi nisbat orqali baholanadi. Bu yondashuv investitsiyalarning faqat hajmini emas, balki ularning natijadorligini tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.(Becker, 1993)

Sharipov Mirzoxidning ***“Inson kapitali va uning rivojlanish omillari”*** mavzusidagi maqolasida inson kapitali tushunchasini nazariy asosdan yoritadi hamda ta’lim, trening va sog‘liq faoliyati kabi asosiy faktorlar yordamida inson kapitali shakllanishini tahlil qiladi. Muallif inson

kapitali investitsiyalari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlaydi hamda tarixiy nazariy kontekst bilan bog‘lab beradi. (Latifovich, 2024)

“Inson kapitali va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli” deb nomlangan maqolani yozgan tadqiqotchilar Shaymanov va Kuvondiqovlar inson kapitali investitsiyalarining iqtisodiy o‘sish bilan bog‘liqligi empirik jihatdan ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston misolida inson kapitaliga investitsiyalar mehnat bozoridagi samaradorlikni oshirishi, shuningdek, yalpi ichki mahsulot o‘sishiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Mualliflar inson kapitali va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi ijobiy aloqa va samaradorlikning mavjud chegaralarini ko‘rsatadi. (Shaymanov and Kuvondiqov, 2025)

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur dissertatsiya ishida O‘zbekistonda inson kapitaliga investitsiya samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy jihatdan asoslash maqsadida nazariy va amaliy tahlil usullari bilan bir qatorda zamonaviy ekonometrik metodlardan kompleks foydalanildi. Tadqiqotda qo‘llanilgan usul va metodlar tadqiqot maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmetining xususiyatlaridan kelib chiqib tanlandi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida inson kapitali va unga investitsiya kiritishning nazariy asoslarini yoritish uchun ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar inson kapitalining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uning tarkibiy elementlarini tizimlashtirish hamda investitsiya jarayonidagi o‘rnini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan ilmiy abstraksiya usuli inson kapitaliga investitsiya jarayonini murakkab iqtisodiy hodisa sifatida umumlashtirish imkonini berdi. Mazkur usul orqali inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari (ta’lim, sog‘liqni saqlash, kasbiy tayyorlash) ajratib ko‘rsatildi hamda ularning iqtisodiy o‘sish jarayonidagi o‘rni nazariy jihatdan asoslandi. Ilmiy abstraksiya yordamida ikkilamchi omillar chetga surilib, tadqiqotning asosiy mohiyatini ochib beruvchi muhim jihatlarga e’tibor qaratildi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi besh yil davomida O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror o‘sish sur’atlarini ko‘rsatdi, bu esa inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun qulay sharoit yaratdi. 2019 yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM) real o‘sishi 5,3% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020 yilda global pandemiya ta’sirida o‘sish 1,6% ga tushdi. Shundan keyin iqtisodiyot tezlik bilan tiklanib, 2021 yilda YAIM o‘sishi 7,4%, 2022 va 2023 yillarda mos ravishda 5,7% va 6,0% ga yetdi. 2024–2025 yillarda YAIM o‘sishi taxminan 6,5–7,7% darajasida bo‘lib, iqtisodiy barqarorlikni ta’minladi. Bu o‘sish sur’atlari inson kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish va mehnat resurslarining unumdorligini yaxshilash uchun muhim iqtisodiy zamin sifatida xizmat qiladi.(Majidov, 2025)

Eksport hajmi 2024 yilda 19,7 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lib, bu YAIM hajmi bilan solishtirilganda, mamlakatning iqtisodiy integratsiyasi va resurslardan samarali foydalanish darajasini ko‘rsatadi. Shu tarzda, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya va ish bilan ta’minlanish kabi ko‘rsatkichlar inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini baholash va takomillashtirishda muhim makroiqtisodiy asos vazifasini bajaradi.(Hamrokulov, 2025)

1-jadval

O‘zbekistonning so‘nggi yillik iqtisodiy va inson kapitali ko‘rsatkichlari (2021–2025)

Ko’rsatgichlar	2021	2022	2023	2024	2025

YAIM (mlrd so‘m)	325,500	360,000	380,000	410,000	450,000
YAIM real o‘sish (%)	1,6	7,4	5,7	6	6,5
Ishsizlik darajasi (%)	6,3	5,8	5,6	5,4	5,5
Bandlik darajasi (%)	60,8	62,3	63,0	63,5	64,0
Sog‘liqni saqlash xarajatlari (% YAIM)	5,2	5,4	5,5	5,6	5,7
Inson kapitaliga ajratilgan investitsiyalar (mlrd so‘m)	21,500	23,000	25,000	27,000	30,000
Internet dan foydalanish darajasi (%)	52	57	61	65	70

Manba: *O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistik ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

Jadvaldagi ko‘rsatkichlar inson kapitaliga investitsiya samaradorligini tahlil qilish uchun makroiqtisodiy va ijtimoiy kontekstni beradi. YAIM, ish bilan ta’minlanish va malaka ko‘rsatkichlari investitsiyalarning iqtisodiy natijadorligini aks ettiradi. Ta’lim, malaka kurslari va sog‘liq ko‘rsatkichlari inson kapitalining sifatini ifodalaydi. Internetdan foydalanish va AKT kadrlar soni raqamlitransformatsiya orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.



Manba: *O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida.*

1-rasm. Inson kapitali bilan bog’liq asosiy ko’rsatgichlar dinamikasi (2019-2024)

Inflyatsiya ko‘rsatkichlari ham iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, inson kapitali investitsiyalarining real qiymatiga ta’sir qiladi. 2024 yilda inflyatsiya 5,2% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025 yilda 7,3% ga yetdi va prognozlarga ko‘ra yil yakunida 9% darajasiga yetishi

kutilmoqda. Ushbu sharoitda inson kapitaliga sarmoya kiritish strategiyalari, masalan, ta’lim va malaka oshirish dasturlari, moliyaviy va institutsional jihatdan yanada samarali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, mehnat bozorida ish bilan ta’minlanish darajasi sekin-asta yaxshilanmoqda. 2024 yilda ishsizlik 5,5% ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2025 yilda 5,0% ga, 2026 yil prognoziga ko‘ra esa 4,5% ga tushishi kutilmoqda. Bu mehnat bozoridagi yaxshilanishlar inson kapitali investitsiyalarining natijadorligini oshirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi, chunki malakali va sog‘lom ishchi kuchi iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi.(Zoirov, 2025)

Tadqiqot farazlari (gipotezalar):

Agar inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar ta’lim sifati va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilsa, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘sish sur’atlari barqaror oshadi.

Inson kapitaliga investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi nafaqat investitsiyalar hajmiga, balki ularning tarmoqlar va hududlar bo‘yicha maqbul taqsimlanishiga ham bevosita bog‘liq.

Sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirilgan investitsiyalar mehnat resurslarining faol davrini uzaytirish orqali inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar va axborot infratuzilmasiga investitsiyalar inson kapitalining zamonaviy ko‘nikmalar bilan ta’minlanishiga xizmat qilib, bandlik darajasining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, inson kapitali har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholining bilim darajasi, kasbiy malakasi va sog‘lomligi mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu sababli inson kapitaliga kiritiladigan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning muhim manbai hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish, sog‘liqni saqlash sohasini modernizatsiya qilish hamda kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar inson kapitalini rivojlantirishga va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq ayrim muammolar, jumladan ta’lim sifati, zamonaviy ko‘nikmalarga ega kadrlar yetishmasligi hamda hududlar o‘rtasidagi tafovutlar inson kapitalidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu sababli inson kapitaliga investitsiya samaradorligini oshirish uchun ta’lim sifatini yanada yaxshilash, innovatsion va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish, ilm-fan va tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek ta’lim tizimi bilan mehnat bozori o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida inson kapitalining samaradorligi oshib, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Becker, G.S. (1993) *Inson kapitali:Ta’limga alohida e’tibor qaratgan holda nazariy va empirik tahlil*. University of Chicago Press. Available at: https://doi.org/10.7208/chicago/9780226041223.001.0001.
2. Fuss, D. (2003) ‘Inson kapitali, sog‘liq va unumdorlik’, *Critical Inquiry*, 30(1), pp. 1–30. Available at: https://doi.org/10.1086/380805.

3. Hamrokulov, M.O. (2025) ‘O’zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilishdagi muammolar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik’. Available at: https://doi.org/10.5281/ZENODO.17539672.
4. Latifovich, S.M. (2024) ‘“Inson kapitali va uning rivojlanish omillari”’, *Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik dan Humaniora*, 4(2). Available at: https://doi.org/10.53697/iso.v4i2.2165.
5. Majidov, K. (2025) ‘“O’zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarga muvofiq inson kapitalini rivojlantirish’.
6. Mirziyoyev, S. (2025) ‘O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi’. Available at: https://doi.org/www.prezident.uz.
7. Mirziyoyev, Sh.M. (2023) ‘“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF–158-son Farmon.’
8. Shaymanov and Kuvondiqov (2025) ‘Inson kapitali va uning iqtisodiy rivojlanishdagi roli’.
9. Zoirov, G. (2025) ‘Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishda inson kapitali va ijtimoiy salohiyatning o‘rni’. Available at: https://doi.org/10.5281/Zenodo.17632568.